

DSP (SEREBRAL FALAJ) BILAN OG‘RIGAN BOLALARDA INDIVIDUAL REABILITATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI

G‘ofurova O‘lmasoy G‘ofurjon qizi

Buxoro viloyati qon quyish stansiyasi IT mutaxassisi

Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada serebral falaj (DSP) bilan og‘rigan bolalarda nevrologik rivojlanish xususiyatlari hamda zamonaviy rehabilitatsiya usullarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi DSP tashxisi qo‘yilgan bolalarda miya faoliyatini zamonaviy diagnostika usullari yordamida baholash hamda individual rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, klinik kuzatuv hamda neyrodiagnostika natijalarini o‘rganish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayrim DSP tashxisi qo‘yilgan bolalarda PET va MRT tekshiruvlari miyaning strukturaviy holati sog‘lom bolalarnikiga yaqin bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa bolalarda neyroplastiklik mexanizmlari saqlanib qolgan bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

Kalit so‘zlar: Serebral falaj, DSP, bolalar nevrologiyasi, rehabilitatsiya, neyroplastiklik, MRT, PET.

Abstract: This article analyzes the neurological development characteristics of children with cerebral palsy (CP) and the importance of modern rehabilitation approaches. The aim of the study is to evaluate brain function in children diagnosed with CP using modern diagnostic methods and to determine the effectiveness of individualized rehabilitation programs. The results indicate that in some cases PET and MRI examinations show brain structures similar to those of healthy children. This suggests that neuroplasticity mechanisms may still be preserved. Early rehabilitation including physiotherapy, speech therapy and psychological support can significantly improve motor and cognitive development.

Keywords: Cerebral palsy, rehabilitation, neuroplasticity, MRI, PET, pediatric neurology.

Kirish

Serebral falaj bolalar nevrologiyasida keng tarqalgan rivojlanish buzilishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik markaziy nerv tizimining erta davrdagi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi va harakat faoliyati, mushak tonusi hamda koordinatsiya buzilishlari bilan namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, serebral falaj har 1000 ta tirik tug‘ilgan chaqaloqning taxminan 2–3 tasida uchraydi. Zamonaviy tibbiyotda MRT va PET kabi diagnostika usullari kasallikni chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, klinik kuzatuv hamda zamonaviy neyrodiagnostika natijalari o‘rganildi. Bolalarning nevrologik holatini baholashda magnit-

rezonans tomografiya (MRT) hamda pozitron-emission tomografiya (PET) tekshiruvlari natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, reabilitatsiya jarayonida bolalarning harakat faoliyati, mushak tonusi va nutq rivojlanishi muntazam kuzatildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ayrim DSP tashxisi qo'yilgan bolalarda miyaning strukturaviy o'zgarishlari minimal darajada bo'lishi mumkin. Bu holat bolalarda neyroplastiklik mexanizmlarining mavjudligini ko'rsatadi. Reabilitatsiya jarayonida davolovchi jismoniy mashqlar, fizioterapiya, massaj, logopedik mashg'ulotlar hamda psixologik qo'llab-quvvatlash usullari qo'llanildi. Ushbu muolajalar natijasida bolalarda harakat koordinatsiyasi va nutq faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Xulosa

Serebral falaj bilan og'rigan bolalarning rivojlanish imkoniyatlari har doim ham to'liq cheklangan deb hisoblash to'g'ri emas. Zamonaviy diagnostika usullari ayrim bolalarda miya tuzilishi sog'lom bolalarnikiga yaqin ekanligini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli individual reabilitatsiya dasturlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rosenbaum P., Paneth N. The definition and classification of cerebral palsy.
2. Novak I. Early intervention for children with cerebral palsy.
3. World Health Organization. Neurological disorders: public health challenges.
4. Bax M., Goldstein M. Proposed definition and classification of cerebral palsy.
5. Odding E., Roebroek M., Stam H. The epidemiology of cerebral palsy.